

**DOSTONLARDA MIFOLOGIYA: "MALIKA AYYOR"
DOSTONI MISOLIDA****Musayev Shohsuvor Tursin o'g'li***Chirchiq davlat pedagogika universiteti**O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-bosqich magistri***Sobitova Tadjixan***Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada "Malika ayyor" dostonidagi mifologik o'rinlar va asarlardagi mubolag'a san'ati haqida keng va batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mifologiya, mubolag'a, san'at, so'ta-tayoq, timsol, fantaziya.

ABSTRACT In this article, mythological places in the epic "Malika Ayyor" and the art of exaggeration in works are widely and in detail considered.

Keywords: mythology, exaggeration, art, suta-stick, embodiment, fantasy.

O'zbek xalq og'zaki ijodining noyob durdonalaridan bo'lgan dostonlar jahon madaniyati xazinasida boy adabiy merosning zamini bo'lib, ilm bilan shug'ullanuvchilarning barchasiga dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Ming yillab tarixga ega bo'lgan o'zbek folklorshunosligida badiiyat masalasi insonlarni har doim qiziqtirib kelgan. U yoki bu baxshi shoirning ijodkorlik salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlaganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan, dostonlarda san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning muhim tomonlaridan biri sifatida baholangan. O'zbek folklorida juda ajoyib dostonlar borki, albatta ularni tadqiq va tahlil etib yosh avlodga bu asarlarning go'zalligi haqida ma'lumot berish darkor. Shunday asarlardan biri "Malika ayyor" dostoni bo'lib, ikkita katta baxshi-shoir orqali bizgacha yetib kelgan. Ular XXI asr birinchi yarmining dongdor shoiri Yo'ldoshbulbul va Fozil Yo'ldosh o'g'lidir. Bu doston murakkab va boy fantaziyalari bilan hamma dostonlardan ajralib turadi.

O'zbek folklorshunosligining yirik epik asarlaridan biri dostonlardir. Ayniqsa, "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlarda mubolag'a san'ati juda qiziqarli qilib tasvirlanadi. Ushbu maqolaga Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan "Malika Ayyor" dostonini ob'yekt qilib oldik. Epik qahramon Go'ro'g'lining Hizr va boshqa Chiltonlarning duosini olgan nazarkarda G'irko'k oti bu turkum dostonlarning deyarli hammasida ishtirok etadi. G'irko'k, ya'ni G'iro't nihoyatda aqlli, hushyor, sezgir va 25 gaz qanoti borligi dostonlarda keltiriladi. Shu ot bilan Malika Ayyorni olib kelishga Avazxon yo'lga tushgan edi. Qirq kecha qirq kunduz, yo'l yurib 500 tog'dan o'tib ochgaza Darband tog'iga yetdi. Ahmad Sardorning buyrug'i bilan Avazxonni o'ldirishmoqchi bo'lgan Asad va Shodmon merganlar shu tog'da edilar. Avazxon dam olmoqchi bo'lib yotsa, oti tishlab uxlatmadi. Avaz aytdi: "Chambilda Xon Go'ro'g'libek otam aytar edi: "Shu G'irko'k ot, minib yurganda, qabatidagi jo'rasi keyinida biror g'anim dushmani bo'lsa, shu ot tishlab uxlatmas edi", - deb. Menga yo shu ikkov dushman, yo bulardan boshqa ham dushman bor, nimaiki

bo'lmasa meni ot uxlatmaydi. Bu tog'ni Darband tog'der ekan; naryog'i Badbaxt cho'l der ekan; kel-e, shu tog'ning boshiga chiqib Badbaxt cho'lga qarayin, agar Darband tog'ining nar yog'ida, Badbaxt cho'lda biror dushman bo'lmasa, kelib shu ikkovining boshini olayin. Badbaxt cho'lda dushman bo'lsa uning bilan bo'layin.

Avaz bu o'yni o'ylab, otlanib, Darband tog'ining boshiga chiqib qaradi, badbaxt cho'lda bir narsa, Avazning ko'ziga g'ivirlab ko'rina berdi. Avazxon: "bu ko'ringan qanday qora ekan, bunga borib kelay, qanday joy ekan, ko'rib kelay, anig'ini bilib ketay", - deb o'ylab borayotib edi, oldidan bir gazadan lop etib bir odam chiqib qoldi. Qaradi: bir filni mingan, ikki oyog'i chim yerni omochday tilgan, soqol-murti o'sib ketgan, aymashib kelib, og'zi-burnini bosib ketgan. [Malika ayyor 1988, 20-21]

Navbatdagi dramatik epizod Maqotil bilan uchrashuv kartinasi. Avazxon tog'tepasiga chiqib qarab, uzoqdan bir qorani ko'radi va unga yaqinlashib boradi. Bu grotesk darajasiga ko'tarilgan bahaybat gavdali Maqotil edi. Bular o'rtasidagi ajoyib dialog va monologlardan namuna keltirmay o'tolmaymiz. Avazxon Maqotil bilan yakka-yakka jangga kirish oldidan avliyolarga sig'inadi:

*Oh urganda tamom qaqshar ustixon,
Abubakir Siddiq, Umaru Usmon,
Kamarbasta pirim, yo Shohimardon
Rahm aylab, yor bo'ling nochor qullara.*

Xuddi mana shu Avazxonning aytgan so'zlariga qarama-qarshi o'laroq Maqotil ham o'zining diniy tushunchalariga ko'ra:

*Qani sening karomating bilayin
Shul maydonda qo'llamagin, ko'rayin!
Temirdan avliyo, g'o'li choryor,
Borgandan o'rningdan bekor qilayin, - deydi.*

[Ma'rifat fidoyisi 2009,31-33]

Bu so'zlar Maqotilning mubolag'a tarzidagi gavda tuzilishiga, fe'l-atvoriga juda mos so'zlar bo'lish bilan birga ajoyib yumor namunasi hamdir. Ehtimol, Fozil shoir bu so'zlarni Maqotil og'zidan aytirish bilan kulgi tug'dirishni maqsad qilib qo'ygandir. Dostonning mana shu epizodidagi nasrda bayon etilgan ikki qahramonning dialoglari ham katta badiiy mahorat bilan yaratilgan bu dialoglarda yumor to'la.

Arbotin mamlakatining bosqinchi qo'shinlari bilan bo'lgan jangda Avazxonning yarador bo'lishi Asad va Shodmon merganlarning xususiyatlarini ochish uchun zarur edi. Chunki Avazxon yarador bo'lmasa, merganlar jangga kirolmagan bo'lar edilar, aniqrog'i, ularning jangga kirishiga ehtiyoji bo'lmas edi. Merganlarning jangga kirishi va zo'r qahramonlik ko'rsatishlari shuning uchun ham zarurki, agar shu qahramonliklari bo'lmasa, dushmanga duch kelganda ularning cho'chishi kitobxon tomonidan qo'rqqoqlik deb talqin qilinishi mumkin edi. U holda asarda merganlar liniyasi bilan bog'liq bo'lgan xalq yumori maqsadga muvofiq bo'lmay, asarga ziyon yetkazishi mumkin edi va butun "Go'ro'g'li" turkumida puxta ishlangan Asad va Shodmon mergan ijobiy obrazlariga "Malikai Ayyor"

dostoni qarama-qarshi burib chiqishi mumkin edi. Fozil shoir tomonidan Avazxonning yarador bulishini bir usul sifatida qo'llab katta badiiy mahorat ko'rsatgan.

Arbotin qo'shinlarini yengib, jangni tugallagan Avazxon bilan ko'rishgan merganlar epizodi oldingi epizodlar bilan chambarchas bog'lanib keladi. Shuningdek, Avazning ta'rifini Gulzamondan eshitgan Gulqiz pari, qahramonni ko'rmak uchun pastki ko'shkiga jo'nadi:

*O'n kanizi belni ushlab,
O'n kanizi po'sh-po'shlab,
O'n kanizi zulfak tashlab,
Yurar bo'ldi yo'lin boshlab,
Bir nechasi setor chalib,
Ko'rganlarning aqlin olib,
Nozik bellari buralib,
Pastki ko'shkiga jo'nadi.
Jo'nadi oyim, jo'nadi,
Jo'nadi pari, jo'nadi.*

Albatta bu kabi dramatik epizodlar o'quvchi yoki tinglovchini lol qoldiradi.

Dostondagi devlarning tasviri ham nihoyatda mubolag'aga boy va ishonarli tasvirlangan.

Shuningdek, Gulqiz bilan Qizildev, Avazxon bilan Qizildev o'rtasidagi monolog va dialoglar misolida ham mubolag'ali tasavvurlarga ega bo'lish mumkin. Zero, hofizasi va improvizatsiyasi zo'r bo'lgan baxshi-shoir Fozil Yo'ldosh o'g'lining timsollar misolida mubolag'ali kechinmalarni kuchaytirilgan ifodasi ekaniga ishonch hosil qilasiz. Tasvirlarning yangiligi, go'zalligi, qiziqarliligi o'quvchining tinglovchining diliga zavq bag'ishlashiga qarab, beixtiyor baxshi-shoirning badiiy kashfiyoti oldida lol qolib, hayratlanib uning mahoratiga tan berasiz.

Mubolag'a darajasiga ko'ra uch turga bo'linadi: tablig', ig'roq, g'uluvv.

Birinchi turi tablig' aqlan ishonish mumkin bo'lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin mubolag'alar. Bunga misol qilib dostonida Avazxonning qalandarlar: Shozargar va Shoqalandar bilan bo'lgan uchrashuv lavhalarini kiritish mumkin.

Ikkinchi turi ig'roq deb ataladi. Belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo'lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo'lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash demakdir. Zero, dostonida Shoqalandarning Torkiston shahriga o'tlanishda Qoratosh oldidagi toqqa siyosat qilib:

*"Men chirpib otarman seni osmonga ,
Injilma, yo'l bergin tog'lar jodugar!"*

deb xitob qilishi go'zal mubolag'a va jonlantirishning badiiy bir ifodasidir.

Bu misralar Go'ro'g'li obrazi uchun juda xarakterlidir. Chunki

*Yeti yoshda er atangan,
Yigirmada sher atangan,
Tog'larni otib yuborgan-*

Go'ro'g'liga o'xshash qahramongina bu so'zlarni aytishi mumkin.

Mubolag'aning uchinchi turi g'uluvv deb ataladi. Aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan tarzda tasvirlash shunday san'at sanaladi. Bunda baxshi-shoir muayyan belgi, holat yoki harakatlarni shu xil tasvirlar ekan, ularga ishonitirish maqsadini ko'zlamaydi, albatta. Ammo, Bu xil manzaralar tasvirlanayotgan belgi, holat yoki harakatning eng yuqori darajasi haqida tasavvur hosil qila oladi, tasvirning noyoblighi esa tinglovchi yoki o'quvchiga zavq bag'ishlaydi. Bu turga misol qilib dostonidagi ayrim epizodlarni keltirishimiz mumkin.

Tillaqiz, boshqa fantastik dostonlardagi parilar singari Shozargardan ustalik, talay hunar, chidam va botirlik talab qilib, uni qiyin sinovdan o'tkazadi. Shoqalandar ham o'z hunarini, barcha bilim va kuchni ishlatib, kerak bo'lganda uzuk, sichqon, kalamush, o'q ilon va qimorboz Yallokal ko'rinishlariga kirib, bu sinovdan sharaf bilan o'tadi. [Ma'rifat fidoyisi, 2009,44]

"Malika ayyor" dostoni boshdan-oyoq mifologik o'rinlar va mubolag'alar bilan to'la. Bu dostonidagi obrazlarning ko'pi devlar, parilar bo'lib ular butun doston bo'ylab syujet tizimida qatorlashib keladi. Voqealar asosan dev va parilarning sehrli bog'larida, tilsimli saroy va qo'rg'onlarida juda qiziqarli holda kechadi. Parilar insoniy ishq va muhabbat tashiganlari kabi erkaklardan botirlik, chidam iqtidor va hunar talab qiladilar. Devlar insonga kezi kelganda yordam berishga, yerda yurish, osmonda uchish va yer ostiga olib kirishga, inson va hayvonlarni turli qiyofaga kiritishga qodir mahluqlardi. Bu dostonida ham Yaproq dev Avazxon va boshqalarni olmaga, otlarini to'rg'ay qilib qo'yniga solib, osmonga uchadi.

Dev va parilarning ham o'z podsholari, amaldorlari, lashkar va lashkarboshilari bor. Ular ham naqshli saroylarga, ajoyib go'zal bog'laru, tilsimli mustahkam qo'rg'onlarga egadirlar. Dostonida inson ham turli qiyofalarga, shakllarga kira oladi. Masalan, inson zarurat chog'ida lochin, yumronqoziq, uzuk, sichqon, o'qilon va xokazolar shakliga kirib, o'z orzusi uchun kurashini davom ettiradi. Dostonida Shoqalandar ilonga, Shozargar yumronqoziq, sichqon, uzukka, Avazxon lochinga aylanadi.

Shuni aytib o'tish kerakki, musulmonlar tasavvuriga sig'magan miflar va real hayotdan olingan ajoyib fantaziyalar bilan to'lgan "Malika ayyor" dostonining asosi xalqimizning islomgacha bo'lgan hayot va e'tiqodlari bilan bog'langandir.

"Malika ayyor" dostonidagi Shozargar oltindan sher yasaydi va bu sher badaniga turli qushlarning rasmlarini soladi, qanotli ot rasmini ham chizadi. Bu "Go'ro'g'li" turkumi dostonlar uchun xarakterlidir. Doston qahramoni Shoqalandar- Go'ro'g'li dushman elida sher bilan olishadi va o'ldiradi. Shuningdek, bu dostonidagi go'zal Gulshanbog'da pishib turgan rang-barang uzumlar tasvirlanadi. Varaxsha xarobalaridan topilgan materiallar pishib turgan xilma-xil uzumlar hashamati saroyga go'zal naqsh etib ishlanganligini ko'rsatadi.

"Malika ayyor" dostoni kuchli ishlangan fantaziyalari bilan boshdan oyoq tizilib borgan mifologiya boyligi bilan hamma dostonlarimizdan ajralib turadi, chunki bu asarlarda inson bilan bir qatorda miflar, mifik mahluqlar beriladi va insonni ulardan ustun va g'olib qo'yiladi, rang-barang fantaziyalarda tabiat va tabiat kuchlarini yengish ilgari suriladi.

Butun syujeti fantaziyalar bilan berilgan "Malika ayyor" dostonida inson qarshisiga boshdan-oyoq, ketma-ket turli qarshiliklar, kuchli to'sqinlilar qo'yiladi. Haybatli uchar devlar, vahimali ajdarlar, tilsimli tog'lar, zaharli chashmalar, sehrli olovlar, issiq, suvsiz, qumli cho'llar va boshqalar o'z orzusi yo'lida dadillik bilan qadam qo'ygan insonni mahv etishdan ojiz qoladilar. Inson turli taraddudlar bilan ularni doim yengadi, o'ziga bo'ysundiradi, yo'q etadi.

Dostonda so'z kuchiga katta ahamiyat beriladi. Dostonning qahramonlaridan Avaz nafasi tutun kabi chiqib turgan devlar bilan g'orda to'qnashganda, so'zi bilan ularni qo'rqitib o'ziga itoat ettiradi. "So'z kuchi", "avrash", "afsunlash" yo'llari bilan tabiatning zo'r kuchiga, kishilarga dushman hodisalariga ta'sir qilish taraddudidan iboratdir. Tabiat hodisalariga so'z orqali ta'sir qilish alohida o'ringa egadir.

Diqqatni jalb etadigan fantaziyalardan biri afsunli so'ta-tayoq va uning rolidir. Doston qahramoni so'ta bilan sehrli tog'ni yoradi, chinorni yoradi, suvlar dushman tomonidan zaharlangan paytda, yerdan sof suvli chashmalar chiqaradi, insonga hujum etgan sehrli olovni urib yo'q etadi. Dostonda bunday o'rinlar ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Malika Ayyor. G`Gulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti, 1988, 20-216.; 334
2. M.Saidov O`zbek dostonchiligida badiiy mahorat. "Fan", 1969
3. Ma`rifat fidoyisi "Mumtoz so`z". 2009.31-336 , 446; 172
4. Fozil shoir. 3-kitob, -T., "Fan", 1973